PEDAGOGIK MAHORATNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK NAZARIYALARNING AHAMIYATI.

Odilova Odina Sobir qizi
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

This article emphasizes the importance of psychological theories in shaping the skills of teachers.

В данной статье подчеркивается важность психологических теорий в формировании мастерства педагогических кадров.

Калит сўзлар: педагог, психология, маҳорат, фаолият, таълим, тарбия.

Ключевые слова: педагог, психология, мастерство, деятельность, образование, воспитание.

Bugungi kunda iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha isloxatlarning asosiy maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilishdan iboratdir. Shu jihatdan ham ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish, milliy istiqlol g‘oyasini o‘zida mujassam etgan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Respublikamiz hukumati xalq ta’limi sohasida o‘rtaga qo‘yayotgan vazifalarni bajarish ko‘p jihatdan pedagogga bog‘liq. Ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, mehtsevar, barkamol inson qilib o‘stirish pedagog zimmasiga yuklatilgan.

Darhaqiqat, xalqimizning kelajagi, mustaqil O‘zbekistoninng istiqboli ko‘p jihatdan pedagogga, uning saviyasiga tayyorgarligi, fidoiyligiga, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishida bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Shu bois mamlakatimizning istiqlol yo‘lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk madaniyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Pedagoglar malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini amalga oshirilishi pedagogik mahoratni takomillashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Zamonaviy pedagogga birgina umumiy madaniyatning o‘zi kifoya qilmaydi. Shuningdek maxsus bilimlar va malakalar asosida talabalarini kuzatish, ularning o‘sishidagi muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy

ijtimoiy g‘oyalar bilan taqqoslash, ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish yo‘llari va usullarini aniqlash, turli vositalar bilan tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish, tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish maqsadga muvofiqdir.

Albatta bunda pedagog talabchan, yaxshi mehribon, sabrli, bosiq va o‘z kasbiga nisbatan e’tiqodli bo‘lishi lozim. Talabani butun qalbi bilan sevadigan pedagog ko‘proq tabassum qiladi, kamroq qovoq soladi. Talabalarga bilim berish bilan birgalikda ayni vaqtda ularga o‘z xarakterini o‘tkaza oladi, ularga odamiylik namunasi bo‘lib ko‘rinadi. Pedagogning kasbga oid mahoratini shakllantirishda pedagogik-psixologik nazariyalarning ahamiyati kattadir, chunki ma’naviyatimizning shakllanishida o‘z-o‘ziga ega bo‘lgan ulur insonlar faoliyati to‘g‘risida, ularga qo‘yilayotgan talablar haqida zamonaviy pedagogik texnologiyalar to‘g‘risida nazariyalar pedagogik mahoratni shakllantirishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi. ***Pedagogik tajribalarni takomillashtirishda ilmiy pedagogik ma’lumotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.*** Chunki, hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti pedagogning ijodkor bo‘lishini fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini talabalarga yetkaza olishi va nihoyat talabalarni ham ijobiy fikrlash, tadqiqotchilik ishlarini o‘rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun pedagog avvalo tadqiqodchilik ishlarini olib borishi va bu sohadagi malakalarni egallashi zarur. Pedagog ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishi davomida, tajribalarni to‘playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U shu xulosalardan o‘zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida xozirgi zamon pedagog uchun zarur bo‘lgan juda muhim bilimlarni egallandi. Pedagogik mahoratni takomillashtirishda shaxsiy pedagogik izlanishning ahamiyati kattadir. Pedagog ishidagi muvaffaqiyatni kunlik faoliyatida kattalar va talabalar, ayrim guruh va yakka shaxslar bilan aloqaga kirisha olish qobiliyatini ta’minlaydi. Aloqalar faoliyatda duch keladigan turli xil voqealarga pedagogik qoidalar nuqtai nazaridan emas, balki sharoitni hisobga olgan holda ijobiy hal etish talab etiladi.

Keng ilmiy saviyaga ega bo‘lish, intelektual qiziqish, yangilikni his qila bilish,pedagogik mahoratni oshirishga intilish pedagogga xos xususiyatlardan hisoblanadi. Ta’lim sifati davlat ta’lim standartlariga muvoffiq bo‘lishi uchun amaliy va nazariy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Bu sohada ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshiriladi. Shaxsiy izlanishlar va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish pedagogning pedagogik mahoratini takomillashtirishning muhim omili bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek nazariy, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy, diniy ilmlardan xam xabardor ma’naviy barkamol bo‘lmog‘i lozim. Xalqimizning kelajagi mustaqil O‘zbekistonnig istiqboli ko‘p jihatdan pedagogga, uning saviyasiga, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga borliq. Ilmiy pedagogik izlanishlarni baholash mezonlari to‘g‘risida fikr yuritilganda, avvalo tadqiqotning zamonaviyligi, dolzarbligi, undan ko‘zlangan maqsad hamda natijalar nazarida tutiladi. Pedagog shaxsining kasb sohasidagi xususiyatlari bu talabalarni sevish, ular bilan ishlashga qiziqish, o‘z kasbiga muxabbatli bo‘lish, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik, qat’iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o‘zini tuta bilish, kasbiy layoqatlik va boshqalar. Samarali pedagogik ta’sir ko‘rsatishni to‘g‘ri tashkil etish talabalar bilan muomala qilishda, samimiy munosabatda bo‘lishga yordam beradi. Amaliy pedagogik faoliyatda ilmiy g‘oyalar va pedagogik tarbiyani qo‘llash, pedagog mehnatiga ko‘p jihatdan borliq. Lekin bu mehnat natijalari darhol kurinmaydi. Uning mahsulini ko‘rish uchun yillab mehnat qilish kerak. Pedagog faoliyatini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu faoliyat o‘zining sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham turlicha bo‘ladi. Haqiqiy fidoiy pedagoglar o‘z faoliyatida eng yaxshi natijalarga erishadilar. Tajribali novator pedagoglar talabalarga samarali ta’lim tarbiya berish bilan bir qatorda pedagogika fanidan yangi yo‘l ham ochmoqdalar. Pedagogik mehnatni amalga oshirish jarayonida quyidagi xususiyatlarni o‘z faoliyatida amalga oshirishlari zarur.

1. Pedagogning siyosiy qarashlari va e’tiqodining aniqligi hamda barqarorligi, talabalar oldida chinakam obro‘ e’tibor qozonishi.

2. Mamlakatning butun ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish va egallagan tajribalarni kollejga olib kirish, bu faoliyatga o‘z talabalarini jalb qilish ularni ijtimoiy, hayotda faol ishtirok etishini ta’minlash.

3. Har bir talaba shaxsiga katta qiziqish bilan qarash va barcha jamoa ishlarini tashkil etish.

4. Pedagoglar o‘z ishlariga bugungi kun talabi bilan emas, balki kelajakni o‘ylab ish yuritish.

5. Talabalarga bo‘lgan munosabatlari, ularning taqdiri haqida g‘amxo‘rlik qilish, o‘z tarbiyalanuvchilarining kelajagi bilan qiziqish.

6. Talaba shaxsiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatish.

7. Ilg‘or pedagogik tajribani hamda ta’lim va tarbiyaning nazariyasini chuqur o‘rganish, hamma yangiliklarni tushunib olish, ularni o‘z tajribalari bilan solishtirib ko‘rish, ba’zilarini o‘z ishida tadbiq qilish.

Pedagogning ijodkorligi talabaning ijodkorligini uyg‘otadi. Ular o‘z talabalarini vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash bilan birga ularning qalbida olijanob fazilatlarni qaror toptiradilar. Shunday ekan, pedagoglarning pedagogik mahoratida shaxsiy faoliyat tizimini ishlab chiqish muhimdir. Hayot kashfiyotlar olami. Tajriba, uslub, fikrlar rang-barang. U samarali mehnat natijasida isbot va dalillar orqali talabalar qalbiga kuchadi. Ularning tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatadi. Talabalar muallimning faxri, kelajagidir. Shu bois ularning niyati talabalarni mustaqil yurt quruvchilari, muxandislari, ilmu ma’rifat fidoiylari safida ko‘rishdir. Pedagogning eng birinchi maqsadi talabasini tezroq savodli qilishdan iboratdir. Lekin uni amalga oshirish juda ham mashaqqatdir. Har bir pedagogning uz faoliyat tizimini ishlab chiqish va unga qa’tiy amal qilish uning ta’lim sohasidagi muvaffaqiyatlarinig muhim omillaridan biridir pedagog bir xil metodlarda dars o‘tish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Aksincha, u o‘qitish metodlarini takomillashtirish ustida tinimsiz ishlashi zarur. Pedagogning talabalar bilan muomalasi tarbiya natijalariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Talabaga muxabbat hech qachon javobsiz qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Махкамов, Ш. (2023). Теоретические основы базы данных (мб) и системы управления базами данных (мббт). Информатика и инженерные технологии, 1(1), 90-94.

2. Аликулов, С. Т., & Махкамов, Ш. С. (2018). Дидактическая компетентность педагога. In Развитие интеллектуально-творческого потенциала молодежи: из прошлого в современность (pp. 150-152).

3. Махкамов, Ш. (2024). Davlat boshqaruv tizimining vujudga kelishi hamda davlat va uning moxiyati. Новый Узбекистан: наука, образование и инновации, 1(1), 379-382.

4. Norqo‘ziyev, Q., Aynakulov, T., Mahkamov, S., & Sodiqov, D. (2024). IMPLEMENTING MOBILE ROBOT WALKING PATH CONTROL AND TRACKING IN C# WINDOWS FORM APPLICATION. International Journal of scientific and Applied Research, 1(3), 95-99.

5. Mahkamov, S., Aynakulov, T., & Baratov, J. (2024). ANDROIDDA MODEL VIEW PRESENTER (MVP) ARXITEKTURASI. International Journal of scientific and Applied Research, 1(3), 199-202.